



AYOL OBRAZINING PEDAGOGIK TALQINI (O'zbek xalq qahramonlik eposlari misolida)

Sadoqat Shamsiddinova,
Qo'qon universiteti tayanch doktoranti.
sadoqatxon043@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0003-9804-9522>

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil
Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil
Jurnal soni: 16
Maqola raqami: 55
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1767>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

milliy tarbiya, etnopedagogika,
qahramonlik eposi, ayol obrazi, pedagogik
funksiya, xalqchilik, metodologik
yondashuv, ishchi ta'rif

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek qahramonlik eposidagi ayol obrazini pedagogik nuqtai nazardan o'rganishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi – folklorshunoslik va pedagogika fanlari tutashgan nuqtada ayol obrazining tarbiyaviy mazmunini tahlil qilish imkonini beruvchi konseptual va metodologik tuzilmani asoslashdir. Manbaviy asosni milliy tarbiya hamda etnopedagogika nazariyasiga oid ishlar, o'zbek eposshunosligining ilmiy merosi va folklor obrazini talqin qilish metodologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar tashkil etadi. Tushunchaviy tahlil, tizimlashtirish, qiyosiy-tarixiy ko'rib chiqish va modellashtirish metodlari qo'llanildi. Natijada "tarbiya – milliy tarbiya – etnopedagogika va xalq pedagogikasi – folklor – pedagogik funksiya – ayol obrazi" tushunchalari to'rt darajali iyerarxik tizim sifatida ta'riflandi; K.D. Ushinskiyning "xalqchilik" tamoyili va G.N. Volkovning "mukammal inson" ideali mazkur tizimning nazariy o'zagi ekanligi ko'rsatildi. "Ayol obrazi" va "pedagogik funksiya" tushunchalarining ishchi ta'riflari taklif etildi. Struktur-tipologik, qiyosiy-tarixiy, struktur-funksional va ramziy-semantik yondashuvlarni pedagogik-funksional tahlil bilan uyg'unlashtiruvchi to'rt komponentli metodologiya asoslandi. Ishlab chiqilgan tuzilma folklor obrazlarini pedagogik talqin qilishning umumiy modeli sifatida qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot nazariy xarakterga ega, shu bois tuzilmaning amaliy samaradorligi doston matnlari materialida alohida tekshirilishini talab etadi. Natijalar milliy tarbiya nazariyasini ayol obrazi konsepsiyasi bilan boyitishga va folklor materialidan ta'lim amaliyotida foydalanishni metodik jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Kirish. Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida tarbiyalash vazifasi hozirgi o'zbek pedagogika fani oldida turgan ustuvor muammolardan biri hisoblanadi. Bu vazifaning yechimi ko'p jihatdan milliy ma'naviy merosni, ayniqsa xalq og'zaki ijodini, tarbiyaning ilmiy asoslangan vositasiga aylantira olishga bog'liqdir. Xalq dostonlari maktab adabiyot dasturlariga kiritilgan va tarbiyaviy tadbirlarda faol qo'llaniladi, biroq ularning obrazlar tizimidan foydalanish ko'pincha umumiy tavsiyalar doirasida qolib kelmoqda.

Ushbu muammoning eng kam ishlangan qirralaridan biri – qahramonlik eposidagi ayol obrazining pedagogik mazmunidir. Ayol obrazi o'zbek folklorining deyarli barcha janrlarida uchraydi va ona, yor, qiz, kelin, momo hamda salbiy maston kampir ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Har bir ko'rinish muayyan axloqiy mazmuni tashiydi, shu bois bu obrazlarni pedagogik kategoriya sifatida o'rganish milliy tarbiya nazariyasi uchun aniq natija berishi mumkin.

Muammoning o'rganilish holati ikki xil manzarani ko'rsatadi. Bir tomondan, o'zbek folklorshunosligida epik ayol obrazi bo'yicha salmoqli ilmiy meros to'plangan: V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifov epos obrazlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilganlar [3], T. Mirzayev doston variantlari va ularning obraz talqinidagi farqlarini o'rgangan [8], S. Yo'ldosheva «Alpomish» dostonidagi xotin-qizlar obraziga maxsus tadqiqot bag'ishlagan [6]. Ikkinchi tomondan, pedagogika fani doirasida folklorning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilingan, bunga O. Musurmonovanning ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga oid tadqiqoti misol bo'ladi [9]. Biroq bu ikki yo'nalish ayol obrazi misolida hali tutashtirilmagan.

Ana shu uzilish metodologik xususiyatga ega. Folklorshunoslik obrazni badiiy-estetik hodisa sifatida, pedagogika esa folklori umumiy tarbiya vositasi sifatida o'rganadi; ayol obrazining tarbiyaviy vazifasini aniqlash uchun esa ikkala fanning tushunchaviy apparati va tahlil usullarini maxsus ravishda uyg'unlashtirish talab etiladi. Bunday uyg'unlashtirish stixiyali emas, balki asoslangan nazariy-metodologik karkasga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Material sifatida aynan qahramonlik eposining tanlanishi bir necha sababga ega. Doston – folklorning hajman yirik va mazmunan ko'p qatlamli janri bo'lib, unda xalqning vatanparvarlik, oila va axloq haqidagi qarashlari obrazlar tizimi orqali yaxlit ifodalanadi. Bundan tashqari, o'zbek dostonchiligi – baxshichilik an'anasi o'ziga xos xalq pedagogikasi instituti sifatida amal qilgan: doston tinglanadigan davra yosh avlod uchun tarbiya maskani vazifasini bajargan, baxshi esa ijrochi bilan birga ma'naviy murabbiy o'mida turgan. Shu bois epik

obrazlarning tarbiyaviy vazifasi ularning ijro kontekstidan ham kelib chiqadi.

Maqolaning maqsadi – o'zbek qahramonlik eposidagi ayol obrazini pedagogik talqin qilishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: tadqiqot predmetini ifodalovchi tushunchalar tizimini aniqlashtirish va ularning iyerarxiyasini belgilash; «ayol obrazi» hamda «pedagogik funksiya» tushunchalarining ishchi ta'riflarini ishlab chiqish; folklor obrazini tahlil qilishning mavjud metodlarini tanqidiy baholab, pedagogik talqinga mos metodologik majmuani asoslash; muammoning o'rganilish holatini pedagogik nuqtai nazardan umumlashtirish.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning manbaviy asosi uch qatlamdan iborat. Birinchi qatlam – milliy tarbiya va etnopedagogika nazariyasiga oid ishlar. Bunga K.D. Ushinskiyning jamoatchilik tarbiyasida xalqchilik tamoyiliga bag'ishlangan asari [12] va uning pedagogik antropologiya tajribasi [13], G.N. Volkovning etnopedagogika bo'yicha fundamental qo'llanmasi [1], K. Hoshimov va S. Ochil tomonidan tayyorlangan o'zbek pedagogikasi antologiyasi [15] hamda O. Musurmonovanning ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi muammosiga doir monografiyasi [9] kiradi.

Ikkinchi qatlam – o'zbek eposshunosligining ilmiy merosi. Bu qatlamni V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifovning o'zbek xalq qahramonlik eposiga bag'ishlangan monografiyasi [3], V.M. Jirmunskiyning xalq qahramonlik eposi bo'yicha qiyosiy-tarixiy ocherklari [2], H.T. Zarifovning «Alpomish» dostoni haqidagi maqolasi [5], T. Mirzayevning doston variantlari bo'yicha tadqiqoti [8], B. Sayimov va G'. Mo'minov mas'ul muharrirligidagi epik janrlar to'plami [14], B. Sarimsoqovning marosim folklori bo'yicha monografiyasi [11] tashkil etadi.

Uchinchi qatlam – folklor obrazini talqin qilish metodologiyasiga oid ishlar: V.Ya. Proppning ertak morfologiyasi [10], YE.M. Meletinskiyning ertak qahramoni obrazi genezisiga bag'ishlangan tadqiqoti [7], J. Eshonqulning obraz va talqin konsepsiyasi [16], shuningdek B. Jumaniozovning eposdagi yalmog'iz obrazi bo'yicha ishi [4] va S. Yo'ldoshevaning «Alpomish» ayol obrazlariga doir tadqiqoti [6].

Manbalarni tanlashda uch mezonga amal qilindi: manbaning tadqiqot predmetiga bevosita aloqadorligi, uning o'zbek eposshunosligi yoki milliy tarbiya nazariyasidagi asosiy ahamiyati hamda birlamchi ilmiy nashr maqomi. Shu bois tahlilga umumiy tavsifiy ishlar emas, balki muayyan nazariy yoki metodologik yechim taklif etgan tadqiqotlar

kiritildi. Doston matnlarining o'zi ushbu maqolada tahlil obyekti sifatida olinmadi, chunki maqsad nazariy karkasni asoslashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola nazariy tadqiqot bo'lgani bois unda matnshunoslik emas, balki nazariy tahlil metodlari yetakchilik qiladi. Tushunchaviy-terminologik tahlil metodi yordamida «tarbiya», «milliy tarbiya», «etnopedagogika», «xalq pedagogikasi», «folklor», «pedagogik funksiya» va «ayol obrazi» tushunchalarining mazmuni aniqlashtirildi, ularning hajmi va o'zaro munosabati belgilandi. Tizimlashtirish va modellashtirish metodlari ushbu tushunchalarni yaxlit iyerarxik tizim shaklida taqdim etish imkonini berdi.

Qiyosiy-tarixiy ko'rib chiqish metodi muammoning o'rganilish holatini bosqichma-bosqich tahlil qilishda qo'llanildi: har bir bosqichda erishilgan natijalar va ochiq qolgan masalalar ajratib ko'rsatildi. Metodlarni tanqidiy baholash esa folklorshunoslik metodlarining pedagogik talqin uchun imkoniyati va cheklovlarini aniqlashga yo'naltirildi.

Tadqiqot to'rt metodologik tamoyilga tayanadi. Tarixiylik tamoyili obrazni va uni o'rganish haqidagi qarashlarni tarixiy-madaniy zaminda ko'rib chiqishni; tizimlilik tamoyili tushuncha va metodlarni o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishni; integrativlik tamoyili pedagogika va folklorshunoslik yondashuvlarini uyg'unlashtirishni; obyektivlik tamoyili esa talqinda matn va ilmiy dalillarga tayanishni talab etadi.

Natijalar

Tahlil natijasida tadqiqot predmetini ifodalovchi tushunchalar tasodifiy yig'indi emas, balki yaxlit tizim tashkil etishi aniqlandi. Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq, rejali va izchil shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy jarayon bo'lib, u jamiyatning tarixiy tajribasi va axloqiy qadriyatlarini bir avloddan ikkinchisiga o'tkazadi. Milliy tarbiya esa tarbiyaning muayyan xalq tili, tarixi, urf-odatlarini va milliy psixologiyasiga tayangan ko'rinishidir.

Tarbiya tushunchasini aniqlashtirishda uning ta'limdan farqi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim – bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayoni bo'lsa, tarbiya – shaxsning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirish jarayonidir. Xalq pedagogikasida bu ikkisi ko'pincha ajralmas holda namoyon bo'ladi: doston tinglovchiga ham bilim, ham axloqiy saboq beradi. Tarbiyaning tarkibiy yo'nalishlari orasida ushbu tadqiqot uchun axloqiy tarbiya yetakchi hisoblanadi, zero epik ayol obrazi birinchi navbatda vafo, sadoqat, iffat, sabr va onalik mehri kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya usullari tizimida esa obraz «o'mak ko'rsatish» usulining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi: u axloqiy talabni qoidadan jonli ibratga aylantiradi.

Milliy tarbiya g'oyasining ilmiy asosi K.D. Ushinskiyning xalqchilik tamoyilidir. Olim barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan yagona tug'ma moyillik – xalqchilik ekanligini ta'kidlab, har bir xalqning tarbiya tizimi uning milliy xususiyatiga tayanishini va ayni shu xususiyatni rivojlantirishini asosladi; boshqa xalqdan mexanik ko'chirilgan tarbiya tizimi esa samarasiz bo'ladi [12, 69-b]. Ushinskiy ona tilini xalq ruhining tirik ifodasi va milliy tarbiyaning asosiy vositasi deb baholagan. Bu qarash folklori – ona tilida yaratilgan og'zaki badiiy ijodni – milliy tarbiyaning tabiiy manbai sifatida ko'rish imkonini beradi. Ushinskiyning pedagogik antropologiya tajribasi esa tarbiyaviy ta'sirni o'rganishda tinglovchining psixologik-hissiy idrokini hisobga olish zaruratini ko'rsatadi [13].

Tizimning ikkinchi o'zagi – G.N. Volkovning etnopedagogika nazariyasidir. Volkov etnopedagogikani xalq ommasi va etnik guruhlarining tarbiyaviy tajribasini, ularning yosh avlodni tarbiyalash borasidagi qarashlari, usullari va an'analarni o'rganuvchi fan sifatida ta'riflaydi [1, 7-b]. Olim «mukammal inson» tushunchasini etnopedagogikaning markaziy tarbiyaviy ideali sifatida ajratadi: har bir xalq o'z og'zaki ijodida ana shunday mukammal inson qiyofasini yaratadi va yosh avlodni unga intiltiradi [1, 21-b]. Volkov ajratgan xalqona tarbiya usullari – ko'rsatma, o'g'it, odatlantirish, ibrat, duo va man etish – folklor matnlarida badiiy shaklda aks etadi [1, 34-b].

Volkov nazariyasidan kelib chiqib, «etnopedagogika» va «xalq pedagogikasi» tushunchalarini qat'iy farqlash zarur. Xalq pedagogikasi – xalqning ko'p asrlik tarbiyaviy amaliyoti, empirik bilimlari va vositalari majmui bo'lib, u yozilmagan holda, og'zaki va amaliy tarzda avloddan avlodga o'tgan. Etnopedagogika esa ana shu tajribani ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etuvchi fandır. Boshqacha aytganda, xalq pedagogikasi – obyekt, etnopedagogika – uni o'rganuvchi fan. Bu farqlash o'zbek pedagogik tafakkuri tarixini tizimlashtirgan K. Hoshimov va S. Ochil ishlarida ham izchil kuzatiladi [15].

Tushunchalar tizimi to'rt darajadan iborat iyerarxiya sifatida tavsiflanishi mumkin. Birinchi – umumnazariy daraja: tarbiya va milliy tarbiya nazariyasi. Ikkinchi – vositachi daraja: etnopedagogika (fan) va xalq pedagogikasi (amaliyot), ular nazariyani xalq tajribasi bilan bog'laydi. Uchinchi – manba darajasi: folklor va uning janrlari, jumladan qahramonlik eposi. To'rtinchi – predmet darajasi: ayol obrazi va uning pedagogik funksiyalari. Ushbu to'rt darajaning uzviy birligi pedagogik talqinning mantiqiy karkasini hosil qiladi.

Tizimda folklorning o'rni alohida izoh talab etadi. B. Sarimsoqov marosim folklorini tahlil qilar ekan, marosimning ruhiy, estetik va uyushtiruvchilik funksiyalarini ajratadi hamda so'nggisini bevosita ijtimoiy-axloqiy vazifa sifatida talqin etadi [11, 24-b]. Bu – folklorning tarbiyaviy funksiyasi haqidagi qarashni folklorshunoslik doirasidan turib tasdiqlovchi muhim dalil bo'lib, pedagogik talqin uchun ichki asos beradi.

Folklorshunoslikda folklorning bilish (kognitiv), tarbiyaviy, estetik va kommunikativ funksiyalari ajratiladi. Bilish funksiyasi orqali yosh avlod xalq tarixi va hayotiy tajribasi bilan tanishadi; estetik funksiya badiiy didni rivojlantiradi; kommunikativ funksiya avlodlar o'rtasidagi ma'naviy aloqani ta'minlaydi. Bu funksiyalar tarbiyaviy funksiya bilan uzviy bog'langan holda amal qiladi va folklorning yaxlit pedagogik ta'sirini hosil qiladi. Tarbiyaviy ta'sirning mexanizmi esa badiiy-estetik tabiat bilan kuchayadi: oddiy nasihat tez unutilsa, badiiy obraz va ohangdor so'z tinglovchi xotirasida barqaror o'mashadi. Aynan shu xususiyat folklori rasmiy tarbiya vositalaridan farqlaydi va obrazni pedagogik tahlilning mustaqil obyekti aylantiradi.

Tushunchalar tizimi asosida tadqiqot uchun ikki kalit tushunchaning ischi ta'rifi ishlab chiqildi. Ayol obrazi deganda folklor matnida badiiy umumlashma va hissiy-konkret shaklda gavdalangan, xalqning ayol haqidagi axloqiy tasavvurlari, ideallari va qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi, syujetda muayyan vazifa bajaruvchi tipiklashtirilgan badiiy birlik tushuniladi. Bu ta'rifda uchta belgi muhim: umumlashmalik (obraz yakka shaxs emas, toifa qiyofasini ifodalaydi), qadriyatli yo'nalganlik va syujetdagi funksional o'rin. J. Eshonqul ta'kidlaganidek, folklor obrazi reallikning oddiy in'ikosi emas, balki xalq tafakkuri tarixining mahsulidir va aynan shunday tadqiq etilmog'i lozim [16, 5-b].

Ta'rifni aniqlashtirishda «obraz», «tip» va «xarakter» tushunchalarini farqlash talab etiladi. Tip – muayyan toifaning umumlashma ifodasi; xarakter – obrazning individual ruhiy qiyofasi; obraz esa ularning badiiy birligidir. Folklorida ayol obrazlari ko'pincha tipik xususiyatga ega bo'ladi, bu esa ularning umumlashtiruvchi va shu bois tarbiyaviy kuchini oshiradi. Bundan tashqari, epik ayol obrazi ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi: bir obraz bir vaqtning o'zida bir necha qadriyatni timsollashtirishi mumkin. Ushbu ko'p qatlamlilik obrazni turli tarbiyaviy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi, ayni paytda tahlilda uning barcha ma'no qirralarini qayd etishni talab qiladi.

Ayol obrazining pedagogik funksiyasi deganda ushbu obrazning yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, axloqiy fazilatlarini hamda xulq-atvor meyorlarini shakllantirishga qaratilgan maqsadli tarbiyaviy ta'siri tushuniladi. Bu ta'sir bevosita didaktik o'g'it tarzida emas, balki badiiy obrazning ta'sir kuchi, unga taqlid qilish (identifikatsiya) yoki undan ibrat olish mexanizmi orqali amalga oshadi.

Pedagogik funksiya ko'p qirrali bo'lib, u bir qator aniqroq vazifalarni qamraydi: bilim va tasavvur berish (kognitiv-ma'rifiy funksiya), qadriyatlarini shakllantirish (aksiologik funksiya), xulq namunasini ko'rsatish (o'mak-namuna funksiyasi), ijtimoiy rolga tayyorlash (ijtimoiylashtiruvchi funksiya) va yomonlikdan ogohlantirish (profilaktik funksiya).

Shu bilan birga «ideal ayol obrazi» va «aks ideal» tushunchalari ajratildi. Ideal obraz taqlid qilinishi lozim bo'lgan namuna vazifasini bajaradi; aks ideal – salbiy obraz – «shunday bo'lma» degan didaktik mazmuni tashiydi va yomon xislatlardan ogohlantiradi. Bu ikkilik xalq pedagogikasining ta'sirchan didaktik mexanizmi bo'lib, epik ayol obrazlarining tarbiyaviy mazmunini ochishda asosiy tahlil vositasi hisoblanadi. B. Jumaniyozov yalmog'iz obrazining genezisi va badiiy-mifologik talqinini ochib berish orqali salbiy qutbni tushinishga material bergan [4].

Folklorshunoslikda obrazni o'rganishning bir necha metodi shakllangan. Ularni tanqidiy baholash natijasida pedagogik talqin uchun to'rt yondashuvdan iborat metodologik majmua asoslandi.

Ayol obrazini pedagogik talqin qilishning metodologik yondashuvlari

Yondashuv	Nazariy manba	Tahlil vazifasi	Pedagogik talqindagi o'rni	Cheklanishi
Struktur-tipologik	V.M. Jirmunskiy [2]; YE.M. Meletinskiy [7]	Obrazning tipologik belgilarini va tarixiy taraqqiyotini aniqlash	Ayol obrazlari tipologiyasini (ona, yor, yordamchi, mard ayol, aks ideal) tuzish	Obrazning milliy-konkret mazmunini yetarli ochmaydi
Qiyosiy-tarixiy	V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifov [3]; T. Mirzayev [8]	Turli doston va variantlardagi obrazlarni taqqoslash	Umumepik qonuniyat va milliy o'ziga xoslikni farqlash	Tarbiyaviy mazmunni bevosita predmet qilmaydi
Struktur-funksional	V.Ya. Propp [10]; B. Sarimsoqov [11]	Obrazni syujetdagi funksiyasi orqali o'rganish	Syujet funksiyasidan pedagogik funksiyaga o'tish ko'prigi	Funksiya shakli belgilanib, qadriyat mazmun chetda qoladi
Ramziy-semantik	J. Eshonqul [16]	Obraz zamiridagi ma'no qatlamlari va xalq dunyoqarashini izohlash	Obrazning axloqiy-qadriyat mazmunini ochish	Talqinning subyektivlashuvi xavfi mavjud

Struktur-tipologik yondashuv obrazlarning umumiy belgilarini va tarixiy taraqqiyotini aniqlashga qaratilgan. V.M. Jirmunskiy o'zbek eposini jahon epik an'anasi kontekstida o'rganib, «Alpomish» syujetini boshqa xalqlar eposi bilan qiyoslagan [2, 12-b]. YE.M. Meletinskiy esa ertak va epos qahramoni obrazining tipologiyasini va genezisini ishlab chiqqan [7, 8-b]. Bu yondashuv ayol obrazlarini pedagogik mazmuniga ko'ra tiplarga ajratish uchun asos beradi.

Qiyosiy-tarixiy yondashuv bir xalqning turli asarlaridagi yoki turli xalqlar eposidagi obrazlarni taqqoslashga yo'naltirilgan. V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifov monografiyasida o'zbek dostonlarining genezisi, tarixiy qatlamlari va obrazlar tizimi aynan shu metod asosida tahlil qilingan [3]. T. Mirzayev esa bir dostonning turli variantlarini qiyoslash an'anasini shakllantirgan [8, 11-b]. Pedagogik talqinda bu yondashuv obrazning umumepik asosini milliy-konkret talqinidan farqlash imkonini beradi.

Struktur-funksional yondashuv obrazni syujetdagi vazifasi orqali o'rganadi. V.Ya. Propp ertak personajlarini bajargan funksiyasiga ko'ra tasniflagan va "yordamchi", "jo'natuvchi", "zararkunanda" kabi funksional rollarni ajratgan [10, 24-b]. B. Sarimsoqov ushbu yondashuvni o'zbek materialida qo'llab, marosimni "xatti-harakat" va "so'z" komponentlari nisbati orqali tahlil qilgan hamda verbal komponentning funksiyalarini belgilagan [11, 24-b]. Mazkur yondashuv pedagogik funksiyani aniqlashga metodik jihatdan eng yaqin turadi, chunki u obrazga "qanday vazifa bajaradi?" degan savol bilan yondashadi.

Ramziy-semantik yondashuv folklor obrazini ma'no yaratuvchi birlik sifatida qaraydi va uning chuqur ma'no qatlamlarini izohlashga intiladi. J. Eshonqulning obraz va talqin konsepsiyasi aynan shu yondashuvga asoslanadi: obraz talqin qilinishi, uning zamiridagi xalq dunyoqarashi va qadriyatlari ochib berilishi lozim [16, 5-b]. Pedagogik talqin uchun bu yondashuv obrazning qadriyat mazmunini aniqlashda yetakchi hisoblanadi.

To'rt yondashuv pedagogik-funksional tahlil bilan uyg'unlashtiriladi. Pedagogik-funksional yondashuvning mohiyati shundaki, u har bir obrazni "qanday tarbiyaviy vazifani bajaradi?" degan savol asosida ko'rib chiqadi va to'rt mezoniga tayanadi: obraz ifodalagan axloqiy fazilat va qadriyat; obrazning ijobiy (ideal) yoki salbiy (aks ideal) qutbi; tarbiyaviy ta'sir mexanizmi (taqlid, ibrat, ogohlantirish); obrazning milliy tarbiya yo'nalishlari bilan bog'liqligi. Metodlar iyerarxik tartibda qo'llaniladi: struktur-funksional va struktur-tipologik yondashuvlar obrazni aniqlash va tavsiflash bosqichida, qiyosiy-tarixiy yondashuv uni keng kontekstda tushunish bosqichida, ramziy-semantik va pedagogik-funksional yondashuvlar esa tarbiyaviy mazmunni ochish bosqichida yetakchilik qiladi.

To'rt asosiy yondashuv yordamchi yondashuvlar bilan to'ldiriladi. Tavsifiy-tahliliy yondashuv obrazning tashqi qiyofasi, xatti-harakati va nutqini izchil yoritib, tahlilning konkretligini ta'minlaydi. Tizimli yondashuv ayol obrazlarini alohida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi va qarshi qo'yuvchi yaxlit tizim sifatida o'rganishni talab etadi: ijobiy va salbiy obrazlar faqat o'zaro qiyoslanganda to'liq ma'no kasb etadi. Kontekstual yondashuv esa obrazni oila, nikoh va marosim an'analari, milliy mentalitet fonida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bu yordamchi yondashuvlar mustaqil metodologik ahamiyatga da'vo qilmaydi, lekin asosiy to'rtlik natijalarining asosiligi oshiradi.

Muhokama. Ishlab chiqilgan karkasni mavjud tadqiqotlar bilan qiyoslash uchun o'zbek eposidagi ayol obrazining o'rganilishini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda

dostonlarni to'plash, nashr etish va dastlabki ilmiy tahlil amalga oshirildi; bu bosqich H.T. Zarifov [5] va V.M. Jirmunskiy [3] nomlari bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichda epos tizimli va nazariy jihatdan o'rganildi – T. Mirzayevning doston variantlari bo'yicha ishlari [8] va B. Sarimsoqovning marosim folklori tahlili [11] shu davrga mansub. Uchinchi bosqichda obraz talqinida yangi metodologik yondashuvlar ustuvor bo'ldi: J. Eshonqulning ramziy-semantik konsepsiyasi [16], S. Yo'ldoshevaning «Alpomish» ayol obrazlariga bag'ishlangan ishi [6], B. Jumaniozovning salbiy obraz genezisiga oid tadqiqoti [4] shular jumlasidandir.

Bu qiyos ikki xulosaga olib keladi. Birinchidan, har uch bosqichda ham ayol obrazi o'rganilgan, lekin uning pedagogik funksiyasi maxsus tadqiqot predmeti bo'lmagan: obraz badiiy-tasviriy vositalar, mifologik genezis yoki marosimiy asoslar nuqtai nazaridan ko'rilgan. Ikkinchidan, to'plangan meros turli fanlar – folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, etnografiya – doirasida tarqoq holda mavjud. B. Sayimov va G. Mo'minov mas'ul muharrirligidagi to'plamda eposda oila, yor va vatan uchun kurash g'oyasi yetakchilik qilishi ta'kidlangan [14], biroq bu kuzatuv pedagogik xulosaga aylantirilmagan.

Fanlararo yondashuvning zarurati muammoning tabiatidan kelib chiqadi. Ayol obrazi bir vaqtning o'zida badiiy (folklor), ijtimoiy-madaniy (etnografiya) va tarbiyaviy (pedagogika) hodisadir. Uni faqat bir fan doirasida o'rganish obrazning bir tomonini ochib, boshqa qirralarini chetda qoldiradi. V.Ya. Propp ishlab chiqqan funksional tasnifda personaj vazifasi syujet tuzilishi doirasida belgilanadi [10] va bu tasnif obrazning qadriyat mazmunini qamramaydi; YE.M. Meletinskiyning tipologik tadqiqoti esa obraz genezisiga qaratilgan [7]. Demak, bu metodlar pedagogik talqin uchun zarur, lekin yetarli emas: ular pedagogik maqsadga yo'naltirilgan yondashuv bilan to'ldirilishi talab etiladi.

Maqolaning nazariy hissasi uch jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, milliy tarbiya nazariyasi, etnopedagogika va folklorshunoslik tushunchalari ilk bor yaxlit to'rt darajali iyerarxiya sifatida tavsiflandi; bunda K.D. Ushinskiyning xalqchilik tamoyili [12] va G.N. Volkovning mukammal inson ideali [1] tizimining nazariy o'zagi sifatida belgilandi. Ikkinchidan, «ayol obrazi» va «pedagogik funksiya» tushunchalarining ishchi ta'riflari taklif etildi, bu esa tahlilni subyektiv baholashdan mezonli tahlilga o'tkazadi. Uchinchidan, folklorshunoslik metodlari pedagogik-funksional yondashuvga bo'ysundirilgan holda to'rt komponentli metodologik majmua ga birlashtirildi.

Ushbu metodologik majmua faqat ayol obrazi uchun emas, balki folklor obrazlarini pedagogik talqin qilishning umumiy modeli sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Erkak qahramon, dono chol yoki baxshi obrazlarini pedagogik jihatdan o'rganishda ham xuddi shu to'rt bosqichli mantiq – tipologiya, qiyos, funksiya, ma'no – saqlanib qoladi.

Ayni paytda taklif etilayotgan yondashuvning chegaralari ham aniq belgilanishi lozim. J. Eshonqul obrazni ruhiy (psixanalitik) talqin qilish imkoniyatini ko'rsatgan [16], biroq bunday talqin pedagogik maqsadga yo'naltirilmagan va uni tarbiyaviy-funksional tahlil bilan to'ldirish talab etiladi. Xuddi shunday, gender yondashuvi ayol obrazining ijtimoiy-madaniy mazmunini ochishda foydali bo'lsa-da, ushbu karkasda u milliy tarbiya va pedagogik funksiya masalasiga bo'ysundiriladi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi. O'zbek qahramonlik eposidagi ayol obrazini pedagogik talqin qilish yaxlit tushunchaviy tizimga tayanadi: tarbiya – milliy tarbiya – etnopedagogika va xalq pedagogikasi – folklor – pedagogik funksiya – ayol obrazi. Bu tizim to'rt darajali iyerarxiya sifatida tavsiflanadi, unda

nazariy daraja amaliy manba darajasiga etnopedagogika va xalq pedagogikasi orqali bog'lanadi.

Tizimning nazariy o'zagini K.D. Ushinskiyning xalqchilik tamoyili va G.N. Volkovning mukammal inson ideali tashkil etadi. Ushinskiy tarbiyaning milliy zaminga tayanishi va ona tilining hal qiluvchi roli haqidagi qarashlari bilan folklori milliy tarbiyaning tabiiy manbai sifatida ko'rish imkonini bersa, Volkov xalq tarbiya tajribasini ilmiy tadqiqot obyektiga aylantirib, og'zaki ijoddagi ideal obrazni etnopedagogikaning markaziy kategoriyasi darajasiga ko'tardi.

Tadqiqot uchun ikki ishchi ta'rif qabul qilindi. Ayol obrazi – folklor matnida badiiy umumlashma shaklda gavdalangan, xalqning axloqiy tasavvurlari va qadriyatlarini mujassam etuvchi, syujetda muayyan vazifa bajaruvchi tipiklashtirilgan badiiy birlik. Ayol obrazining pedagogik funksiyasi – ushbu obrazning yosh avlodga milliy va

umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy fazilatlarni hamda xulq-atvor meyorlarini shakllantirishga qaratilgan maqsadli tarbiyaviy ta'siri.

Pedagogik talqin metodologiyasi to'rt yondashuvning uyg'unligiga tayanadi: struktur-tipologik yondashuv obrazlar tipologiyasini tuzadi, qiyosiy-tarixiy yondashuv umumepik va milliy qatlamlarni farqlaydi, struktur-funksional yondashuv syujet funksiyasidan pedagogik funksiyaga o'tish ko'prigini yaratadi, ramziy-semantik yondashuv esa obrazning qadriyatli mazmunini ochadi. Ular pedagogik-funksional tahlilga bo'ysundirilib, to'rt mezon – qadriyat, qutb, ta'sir mexanizmi, tarbiya yo'nalishi – asosida qo'llaniladi.

Ishlab chiqilgan nazariy-metodologik tizim epik ayol obrazlarini mezonli tahlil qilish va ular asosida milliy tarbiya modelini loyihalash imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishi – ushbu karkasni konkret doston materialida sinash hamda uning ta'lim amaliyotidagi samarasini tajriba-sinov asosida baholashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учеб. для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений. – Москва: Академия, 1999. – 168 с.
2. Жирмунский В.М. Народный героический эпос: Сравнительно-исторические очерки. – Москва–Ленинград: Гослитиздат, 1962. – 435 с.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ОГИЗ, Гослитиздат, 1947.
4. Жуманиёзов Б. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи: филол. фан. номзоди дисс. автореферати. – Тошкент, 1996.
5. Зарифов Н.Т. «Алпомиш» достони ҳақида // «Алпомиш» – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 5–22.
6. Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки: Происхождение образа. – Москва: Изд-во восточной литературы, 1958. – 264 с.
7. Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. – 176 б.
8. Мусурмонова О. Маънавий кадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: Маънавият, 1996. – 188 б.

9. Пропп В.Я. Морфология сказки. – Ленинград: Академия, 1928. – 152 с.
10. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фолклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.
11. Ушинский К.Д. О народности в общественном воспитании // Собрание сочинений: в 11 т. – Москва–Ленинград: Изд-во АПН РСФСР, 1948. – Т. 2. – С. 69–166.
12. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания: Опыт педагогической антропологии // Собрание сочинений: в 11 т. – Москва–Ленинград: Изд-во АПН РСФСР, 1950. – Т. 8.
13. Ўзбек фолклорининг эпик жанрлари / Масъул муҳаррирлар Б. Сайимов, Ғ. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1981.
15. Ношимов К., Очил С. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010.
16. Эшонкул Ж. Фолклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 112 б.